

## ROMITANNING PAYDO BO'LIH TARIXI VA O'RTA ASRLARDAGI FAOLIYATI

**Tilavova Ozoda**

*Buxoro Davlat Universiteti,  
Tarix va Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Romitan Buxoro vohasida joylashgan va uzoq o'tmishlik tarixga ega o'lkalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada ushbu qadimiy o'lka haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek Romitan tumani davlatchiligi tarixi, madaniyati, xalq xo'jaligi haqida Somoniylar davrigacha bo'lgan davri haqida so'z yuritiladi.*

**Abstract:** *Romitan is located in the oasis of Bukhara and is considered one of the countries with a long past history. This article provides information about this ancient country. Also, the history, culture, and economy of Romitan district statehood up to the time of the Somanites will be discussed.*

**Kalit so'zlar:** *Romitan, Romtin, Afrosiyob, Siyovush, Kayxusrav, Buxoro, Romish, "Qini Siyovush", Sheri Kishvar, Ubaydulloh ibn Ziyod, Xotun Buxorxudot.*

**Key words:** *Romitan, Romtin, Afrosiyab, Siyovush, Kaykhusrav, Bukhara, Romish, "Kini Siyovush", Sheri Kishwar, Ubaidullah ibn Ziad, Khatun Bukhorkhudot.*

O'zbekiston o'lkasi ko'p yillik tarixga ega bo'lgan shaharlar, qo'rg'onlar va arxeologik joylarga boy hudud hisoblanadi. Qadimdan ushbu joyda qanchadan-qancha davlatchilik asoslari mavjud bo'lib, ular hatto jahon tarixida ham ahamiyatga ega bo'lgan buyuk davlatlari qatorida tilga olinadi. Xuddi shunday Buxoro vohasi ham yurtimizning qadimiy vohalaridan biri bo'lib sanaladi. Vohaning qariyb hamma shahrining yoshi ming yildan ulug'roqdir. Buxoroda joylashgan Romitan shahri ham Buxoro o'lkasi davlatchiligida eng muhim rol o'ynagan markazlardan sanaladi.

Romitan haqida dastlabki yozma ma'lumotlar IX-X asrlarga borib taqaladi. "Buxoro tarixi" asari muallifi Muhammad Ja'far Narshaxiy ham Romitanning paydo bo'lish tarixidan boshlab, uning yoshi, ko'rinishi, inshootlari, Turk xoqonligi davridagi holati, arablar istilosi jarayonida mudofaa va istilo qilinishi, so'ngra esa buyuk Somoniylar davlati davrida shaharning gullab yashnashi va davlatchilikdagi o'rni haqida bayon etiladi. Jumladan, buyuk tarixchi shunday yozadi: "(Romitan) katta ko'handizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu joyni Buxoro deb ataganlar. Bu joy qadimgi vaqtlardayoq podsholarning turar joylari bo'lgan. Keyinroq esa Buxoro shahri bino bo'lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo'lganlar. Bu yerlarda islom davlatiga o'tganda ham shunday bo'lib turgan. Bu qishloqni Afrosiyob bino qilgan. Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganda shu qishloqdan boshqa joyda turmagan. Forsiylar kitobida aytilishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan. U jodugar bo'lib, Nuh podshohning bolalaridandir. U o'zining Siyovush nomli kuyovini o'ldirgan. Siyovushning Kayxusrav nomli o'g'li bo'lib, u otasining qonini talab qilib, ko'p lashkar bilan u viloyatga

kelganida Afrosiyob shu Romtin qishlog'ini hisor qilib turgan. Kayxusrav o'z lashkari bilan ikki yil shu hisor atrofini o'rab turdi va uning ro'baro'siga bir qishloq bino qilib, u qishloqni Romush deb atadi. Uni yaxshiligidan Romush deganlar. Bu qishloq hozirgacha obodondir (Narshaxiy yashagan davr). Kayxusrav Romushda otashparastlar ibodatxonasini qurdi; otashparastlarning aytishlaricha, bu ibodatxona Buxorodagi ibodatxonalarning eng qadimiysidir. Kayxusrav ikki yildan keyin Afrosiyobni tutib o'ldirdi. Afrosiyobning go'ri Buxoroda Ma'bad darvozasida rahmatli Xoja Imom Abu Hafs Kabir tepaligida tutashgan katta tepalik ustidadir. Buxoro aholisi Siyovushning o'ldirilishi to'g'risida ajoyib ashulalar to'qiganlar; kuychilar bu qo'shiqlarni "Qini Siyovush" – "Siyovush janggi" deb ataydilar"<sup>66</sup>.

Romitanning yoshi haqida so'z boradigan bo'lsa, Narshaxiy Buxoroning yoshini o'zi yashab turgan davrdan qiyoslab "Bu gaplar bo'lganiga hozir uch ming yildan ortiqroqdir" deya baho beradi. Albatta bu isbotlangan fikr bo'lmasada, undagi voqealar shu davrga to'g'ri keladi. Romitanning yoshi esa Buxoroga nisbatan ortiqroq, ya'ni, uch ming yildan ortiq davr atrofida deyish mumkin.

Ammo boshqa holatga qaraganda Narshaxiyning o'zi Buxoro va Romitan hisorlaridan qurilishi davrlaridan tashqari shahristonlar haqida ma'lumot beradi. Uning fikricha: "Sheri Kishvar Buxoro shahristonini qurdi hamda Mamostin, Saqmatin, Samtin va Farab qishloqlarini bino qildi. U yigirma yil podshoh bo'lib turdi. Undan keyin bo'lgan boshqa podshoh Iskajkat, Sharg' va Romtin qishloqlarini bino qildi. Xitoy podshohining qizini kelin qilib Buxoroga olib kelganlarida uning jihozlari orasida Xitoydan bir butxona ham olib keldilar va uni Romitanga o'rnatdilar"<sup>67</sup>.

Demak, bundan ma'lum bo'ladiki, Romitanning aholi punkti sifatida to'la shakllanishi davri turk xoqonligi davriga to'g'ri keladi. Ammo, keyinchalik har bir joyning gullab yashnagan davri singari uning tanazzul davri mavjuddir. Shaharning vayron bo'lish tarixi O'rta Osiyoning deyarli ko'pchilik hududlari singari arablar bosqini davriga to'g'ri keladi.

VII asrda Arablar Buxoro hududiga bostirib kira boshlagan. Bu paytda esa Buxoro So'g'dida Buxorxudotlar sulolasidan Xotun podshoh hukmronlik qilgan. 673-yilda Ubaydulloh ibn Ziyod Buxoro vohasiga qo'shin tortib keladi. U Baykand va Romitanni egallab oladi<sup>68</sup>. Xotun podshoh nafaqat Buxoro shahri hududlarini, balki o'sha paytda Buxorxudotlar hukmiga tegishli bo'lgan Buxoro vohasi: asosan hozirgi Vobkent, Kogon, Jondor hududlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Ammo arablar hujumiga duchor bo'lgan Romitan va Boykand (yoki Poykent, hozirgi Qorako'l tumanida joylashgan) dushman qo'lida vayron etildi<sup>69</sup>.

<sup>66</sup> Наршахий. Бухоро тарихи. -Т.: "Фан", 1966. - Б. 23-24.

<sup>67</sup> Наршахий. Бухоро тарихи. -Т.: "Фан", 1966. - Б. 17.

<sup>68</sup> Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. -Т.: "Sharq", 2010. -В. 133.

<sup>69</sup>. Паёми донишқада. Вестник университета. Herald of institute. МАСОИЛИ МУБРАМИ ТАЪРИХ, ТАЪРИХИ МАДАНИЯТ, ТАЪРИХНИГОРЎ ВА МАНБАЪШИНОСИИ ТАЪРИХИ ХАЛҚҲОИ ОСИЁИ МИЁНА. №10. Панҷакент 28.12.2021. А.И. То'rayev, Hayotov F.U. ХОТУН ПОДШОҲ АҲОЛ СИҲМОСИДАГИ ҚАНРАМОН. - В.678.

Romitanning buzib tashlanishi bu bilan shaharda hayot tugab qoldi degani emas. Romitan yana necha asrlar arablar davrida gullab yashnadi, shuningdek islom dinini qabul qildi. Bu holat esa bu joydan buyuk shaxslar va kelajakda yetti pirlardan biri hisoblangan Hoja Ali Rometaniyning yetishib chiqishiga zamin bo'ldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Наршахий. Бухоро тарихи. -Т.: “Фан”, 1966.
2. Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. -Т.: “Sharq”, 2010.
3. Паёми донишкада. Вестник университета. Herald of institute. МАСОИЛИ МУБРАМИ ТАЪРИХ, ТАЪРИХИ МАДАНИЯТ, ТАЪРИХНИГОРЎ ВА МАНБАЪШИНОСИИ ТАЪРИХ ИХАЛҚҶОИ ОСИЁИ МИЁНА. №10. Панҷакент 28.12.2021. А.И. То'rayev, Hayotov F.U. ХОТУН РОДСНОН АҲОЛ СИҲМОСИДАГИ ҚАНРАМОН.
4. Маткаримова, Н. М. (2020). Хоразмнинг анъанавий таомлари (монография-альбом). Школа Науки, (8-2), 1-33.
5. Jamolov, R. Q., Xatamova, D. M., & Xolmatova, M. A. (2022). ASALNING TASNIFI VA KIMYOVIY TARKIBI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 1031-1036.